



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19916271>

Gender madaniyating yoshlar hayotidagi ahamiyati

Mo'ydinova Xulkar Kamoldin qizi –

Andijon davlat pedagogika instituti 2-kurs tayanch doktoranti

E-mail: muydinova955@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-6695-0583>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada gender madaniyat tushunchasining yosh avlod ijtimoiy, ma'naviy va madaniy rivojlanishidagi o'rni yoritilgan. Unda gender tengligi, erkaklar va ayollarning jamiyatdagi o'zaro munosabatlari, huquq va majburiyatlari tengligiga asoslangan tushunchaning yoshlar tarbiyasiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilingan. Maqola yoshlarning gender tengligiga oid bilim va qarashlarini shakllantirish orqali ularning ongli fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.*

***Kalit so'zlar:** gender, tadqiqot, ierarxiya, kategoriya, modellashtirish, biografik uslub, tadqiqot, empirik, jins.*

Роль гендерной культуры в развитии молодежи

***Аннотация.** В данной статье освещается роль гендерной культуры в социальном, духовном и культурном развитии подрастающего поколения. В нем анализируется влияние на воспитание молодежи подходов, основанных на гендерном равенстве, взаимоотношениях мужчин и женщин в обществе, равенстве прав и обязанностей. Статья служит укреплению сознательной гражданской позиции молодежи путем формирования у нее знаний и взглядов на гендерное равенство.*

***Ключевые слова:** пол, исследование, иерархия, категория, моделирование, биографический стиль, исследование, эмпирический, пол.*

The role of gender culture in the development of youth

***Annotation.** This article covers the role of gender culture in the social, spiritual and cultural development of the younger generation. It analyzes the impact of approaches based on gender equality, the interaction of men and women in society, equality of rights and obligations on youth education. The article serves to strengthen the conscious civic position of young people by shaping their knowledge and vision of gender equality.*

***Keywords:** gender, research, hierarchical, category, modeling, biographical method, research, empirical, gender.*

KIRISH

Hozirgi kunda millat taraqqiyoti va ijtimoiy barqarorlikka erishishda gender madaniyatining o'rni beqiyos. Gender tengligi tushunchasi faqat huquqiy normalar yoki iqtisodiy imkoniyatlar bilangina cheklanib qolmay, balki yosh avlodning ongida shakllanadigan madaniyat sifatida ham e'tirof etilishi lozim. Shu bois, yoshlarda gender madaniyatini rivojlantirish istiqbollari va samarali mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Dunyoda gender muammosi bilan bog'liq tadqiqotlarning mohiyati so'nggi yillarga kelib sezilarli darajada o'zgarayotganini guvohi bo'lib turibmiz. Shu paytgacha gender tadqiqotlarda ayollarning jamiyatda erkaklar bilan tengligini ta'minlash, ularning kamsitilishi, ijtimoiy adolatsizlikni oldini olish masalasi ustuvor bo'lgan bo'lsa, endilikda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda jamiyatda erkak va ayolning ierarxik munosabatlari, gender va jins kategoriyalarining o'xshash hamda farqli jihatlari, genderning ijtimoiy mohiyati to'g'risidagi qarashlarga ham katta e'tibor berilmoqda.

Hozirgi vaqtda eng dolzarb muammolardan biri – bu insonlarning Gender xususiyatlarini o'rganish yo'llarini ishlab chiqish. Gender psixologiya va pedagogikada turli xil metodlar faol qo'llaniladi: kuzatish, eksperiment, so'roq, intervyu, testlar, modellashtirish, biografik uslub va boshqalar. Ammo, Gender masalalarini chuqur o'rganish va ularni tahlil qilish uchun hamma uslublar ham mos kelmaydi. Geneder muammolarni hal qilish samaradorligini solishtirganda, ikkala jins uchun ham qulay va tushunarli tilda tuzilgan, erkaklar va ayollar uchun qiziqarli bo'lgan vazifalarni qo'llash lozim. Ushbu xususiyatlarning hisobga olinmasligi, natijalarning aniq bo'lmasligiga olib keladi. Masalan, muvaffaqiyat motivatsiyasini o'rganishda erkaklar ayollarga qaraganda yuqori ko'rsatkichlarni egallaydilar. Agar siz martabaga yo'naltirilgan erkaklar va ayollar namunalarni ko'rsangiz, hech qanday farq bo'lmaydi yoki ular minimal bo'ladi. Bundan tashqari, agar yutuq motivatsiyasi haqidagi g'oyalarga o'zgartirishlar kiritilsa, masalan, nafaqat kasbda, balki oila doirasidagi yutuqlar, bolalarni tarbiyalash, sevimli mashg'ulotlari va boshqalarni hisobga olsak, holat tubdan o'zgaradi. Shunday qilib, uslublarning xususiyatlari va eksperimentatorning jinsi, shuningdek, uning ilmiy qarashlari empirik ma'lumotlarni olishga ta'sir qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ko'plab xorijiy olimlar gender madaniyatining yoshlar rivojlanishidagi ahamiyatini o'rganib, uning shaxsning ijtimoiylashuvi, o'zini anglash jarayoni va kasbiy yo'nalishini tanlashga ta'sir qilishini qayd etganlar. Masalan, gender nazariyasi sohasida tadqiqot olib borgan Judith Butler genderni ijtimoiy konstruksiya sifatida talqin qilib, shaxsning gender identifikatsiyasi jamiyatdagi madaniy va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanishini ta'kidlaydi. Shuningdek, Raewyn Connell o'z tadqiqotlarida gender munosabatlari jamiyatdagi ijtimoiy tenglik va rivojlanish jarayonlariga ta'sir qiluvchi muhim omil ekanligini yoritgan.

Britaniyalik Jun Stetem o'z farzandlarida "erkak" va "ayol" sifatlarini yangicha uyg'unlikda tarbiyalashga kirishgan oilalarda tadqiqot o'tkazgan. Ular o'g'il bolalar o'zgalarning tuyg'ularini yaxshiroq his etishini, mehribonroq bo'lishini xohlar, ayni paytda qizlarda ta'lim olish va o'z-o'zini takomillashtirish uchun imkoniyatlardan faol foydalanishni rag'batlantirardi. Barcha ota-onalar shakllangan Gender ta'limiga qarshi turish murakkabligini tan olgan. Chunki bolalar ham jamiyatda an'anaviy qarashlarning ta'siriga tushib bo'lgan.

Olib borilgan tadqiqotlarda gender madaniyati yoshlarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy faolligi va teng imkoniyatlarga ega bo'lishida muhim rol o'ynashi takidlanadi. Tadqiqotchilar ta'lim jarayonida gender yondashuvini qo'llash orqali yoshlarning tenglik, hurmat va hamkorlik kabi ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtirishi samaraliroq va osonroq kechishini ta'kidlaydilar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Gender yondashuv – Gender tengsizligining mavjudligini va sabablari, oqibatlarini tushunish hamda ularning yechimini ta'minlash to'g'risidagi yondashuv. Gender yondashuv erkak va ayollar o'rtasidagi gender munosabatlaridagi o'zgarish bo'lib, erkaklar va ayollar uchun foydali ta'sir ko'rsatadigan vakolatlar va majburiyatlarni yanada teng taqsimlashga yordam beradi. Gender tenglik jamiyat rivojida muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarda dolzarb ahamiyatga ega ekanligi bugungi kunda yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bugun oilada, jamiyatda, ayniqsa, Gender tenglik munosabatlarini o'rnatish, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani natijasida ijtimoiy munosabatlarda ham, qonunchilikda ham katta islohatlar amalga oshirilmoqda.

Jamiyatda ayol va erkak o'rtasidagi munosabat, avvalo milliy madaniyatning xususiyatlari bilan belgilanadi va jamiyat o'zgarishlariga, hayot sharoitlariga parallel ravishda rivojlanib boradi. Bizning davlatda erkak va ayollarning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini va darajasi bor. Xotin-qizlarning o'z iste'dodi va qobiliyatini ro'yobga chiqarish uchun berilayotgan imkoniyatlar Gender munosabatlarning takomillashuvi bilan bir qatorda, ayolni e'zozlash, unga bo'lgan hurmat va e'tibor kabi milliy o'ziga xosligini saqlab qolishga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Erkaklar va ayollarning siyosat, iqtisodiyot va jamiyatda teng ishtirok etishlari uchun samarali choralar ko'rish, faol siyosat olib borish ham xotin-qizlarning ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirishda sezilarli ijobiy natijalarga erishishiga olib keladi. A.A.Denisova biologik nuqtai nazardan erkak va ayollar orasida tafovutdan ko'ra o'xshashlik ancha ko'proq ekanligini ta'kidlaydi. Ko'pgina tadqiqotchilar ular orasidagi muhim biologik farq ularning nasl qoldirishdagi roli deb hisoblashadi. Shubhasiz, bugungi kunda erkaklarning baland bo'yi, og'irligi va jismoniy baquvvatligi kabi "tipik" jinslar orasidagi farqlar nihoyatda o'zgaruvchan va jins tushunchasiga kamroq bog'liq.

Biologik farqlar o'laroq, odamlar orasida ularning jamiyatdagi ijtimoiy roli, faoliyati, xulq-atvoridagi farqlar ham mavjud. Antropologlar, etnograflar va tarixchilar ancha oldin "erkaklarga xos" va "ayollarga xos" tasavvurlarning nisbiyligini aniqlab berganlar, ya'ni bir jamiyatda erkaklar mashg'uloti deb sanalgan hodisa, boshqasida ayollarga xos deb belgilangan. Gender mauammolarda ayollarning kamsitilishi, tahqirlanishi aksariyat hollarda o'z yaqinlari, oila a'zolari tomonidan yetkazilishi bu masalaga nihoyatda jiddiy yondoshish talabini qo'yadi. O'z oilasi a'zolari, yaqinlari tomonidan tahqirlangan xotin-qizlar ota-onasi, aka-ukasi, eri, qaynona-qaynotasi tomonidan huquqlari toptalganini ovoza qilish, bu haqda tegishli tashkilotlarga arz qilish kabilardan or qiladi. O'z navbatida ayolning tahqirlanayotganini ko'rib-bilib turgan qo'ni-qo'shnilar, mahalla-ko'y oila ichidagi muammolarga aralashmaslikka harakat qiladilar. Shunday vaziyatlar bo'ladi-ki, notinch oila haqida xabar berishga jur'at etgan qo'ni-qo'shnilar yoki tahqirlangan ayolning o'zi qattiq tazyiq ostiga olinadi. Bunday tazyiqdan qo'rqib tegishli tashkilotlarga topshirilgan arizalar

qaytarib olinadi. Mahalliy aholi hududlarida ish faoliyatini olib borayotgan “Fuqarolar yig‘ini” hodimlari, mahalla tinchligini saqlash bo‘yicha militsiya hodimlari aksariyat hollarda arizaning nima sababdan qaytarib olingani sababini bilishga qiziqmaydilar. Qaytarib olingan ariza bo‘yicha ish yopilib, muammoga barham beriladi, go‘yo. Biroq, muammoning fojeasi aynan ana shu erdan boshlanadi. Qilingan jinoyat jazosiz qolgani sababli himoyasiz ayolni tahqirlash yanada kuchayadi. Bu esa og‘ir vaziyat, ba’zi hollarda xatto qotillik sodir etilishiga olib keladi. Mana shunday sabablarni talabalarga tushuntirish asosida ularda Gender madaniyatni shakllantirish bilan birga Gender tarbiyani tashkil etishda yuqori salohiyatli pedagoglar avlodini tayyorlash imkoniyati yaratiladi.

XULOSA

Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida gender tenglikni shakllantirish, ayol va erkak munosabatlarida tenglik, maqomlarida muvozanat va huquq va erkinliklari kafolatlanishida adolatlilikni ta’minlashning ijtimoiy asoslari jamiyatning ijtimoiy va Gender stereotiplariga, ijtimoiy himoya strategiyasiga hamda e’tiqodi, axloqiy qadriyatlari va boshqa milliy va madaniy xususiyatlariga bog‘liq bo‘lishi kelib chiqadi. Bu esa mazkur omillarni chuqur o‘rganish va ularning ijobiy va salbiy tomonlarini tadqiq etish orqali gender tenglikka erishish imkoniyatini oshiradi.

Yoshlarda gender madaniyatini shakllantirish ularning kelajakda ta’lim jarayonida gender tenglik tamoyillarini to‘g‘ri qo‘llashiga yordam beradi. Binobarin hozirgi global rivojlanayotgan zamonda jamiyat taraqqiyotida ayollarning ham salmog‘ini yanada oshirish har tomonlama muhim vazifa bo‘lib hizmat qiladi. Buning uchun pedagogik ta’lim jarayoniga gender madaniyati bo‘yicha maxsus kurslarni kiritish va interfaol metodlardan keng foydalanish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг 2021 йил 28 майдаги «2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасида гендер тенгликка эришиш стратегиясини тасдиқлаш ҳақида» ги СҚ-297-IV-сонли Қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг 2021 йил 28 майдаги «2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасида гендер тенгликка эришиш стратегиясини тасдиқлаш ҳақида» ги СҚ-297-IV-сонли Қарори.
3. Гаджиева Р. Г. Динамика гендерных стереотипов и их влияние на профессиональную самореализацию личности: Автореф. дис.... канд. психолог, наук. М., 2000. - 24 с.
4. Мўминова З. Гендер таълим – самарадорлик омили сифатида// Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2021 йил Махсус сон). –Б. 212.
5. Насруллаева Х. Ўзбекистонда Хотин-қизлар ижтимоийлашуви жараёнининг фалсафий таҳлили: Фалсафа фан. номз. ... дис. – Тошкент, 2000. – Б.137
6. Нарбаева Т. К. Ўзбекистонда хотин-қизларни ижтимоий ҳимоя қилиш тизими самарадорлигини оширишнинг инновацион модели. Социология фанлари бўйича фан доктори (DSc) диссертацияси автореф., Т.-:2020. 8-б.
7. Рыков С. II Гендерные исследования в педагогике // Педагогика. - 2001. №7. С. 17-22.